FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2023 - yil 16 - may 58-11-165-Q/23 Yozyovon tuman hokimligi

Tumandagi 3-,9-,20- va 21-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha 9 soatlik 4 ta to'liq kunlik guruh ochishga ruxsat berish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillar maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 29-dekabr kungi PQ-2707-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 13-maydagi 391-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6,25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limining 2023 yil 11-aprel kungi 01-02/1-68-sonli xati inobatga olinsin, tuman moliya bo'limi bilan kelishilgan holda tumandagi 3-,9-,20- va 21-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha 9 soatlik 4 ta to'liq kunlik guruh ochishga ruxsat berilsin.

2. Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi (S.Maxkamova) va 3-,9-,20-,21-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlariga:

- Yangi ruxsat berilgan guruhlarda ishlovchi xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va yetarli shart-sharoyitlar yaratish;

- Yangi guruh xonasini yong‘in xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga mos holatda ekanligini nazorat qilish;

- Bolalarda Vatanga muhabbat tuyg’usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

- Bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash;

- Bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta’limga tayyorligini ta’minlash;

- Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish;

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti maktabgacha ta’limga qo'yiladigan davlat

talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta’minlash;

- Tibbiyot xodimlar tomonidan bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy kamoloti, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya etilishini nazorat qilish;

- Xududlardagi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni qamrab olinishini va sifatli oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlanishini nazoratga olish topshirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Xatamov hamda tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri v.v.b S.Maxkamovalar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**